

## **KICHIK GURUHLARDA BOSHQARUVCHILIK VA UNING AHAMIYATI**

**ADPI katta o’qituvchisi  
Vaxabova O’g’ilxon Tolibjonovna  
1-bosqich talabasi  
Odilova Shohsanam Doniyorbek qizi**

**Annotatsiya:** ushbu maqolada kichik guruhlar hajmi uni tashkil etuvchi shaxslar soni xususida kichik guruhlardagi boshqaruv, boshqaruv shakllari va ahamiyatli taraflari, kichik guruhlarda liderlik ya’ni boshqaruvchilik qilish bu juda ham jiddiy bo’lgan masalalar, liderni ahamiyati haqida so’z boradi.

**Kalit so’zlar:** guruh, kichik guruh, nonkonformizm, lider, rahbar, umumiy faoliyat, shaxs, diada.

Guruh tushunchasi - umumiy belgilar, umumiy faoliyat, muloqat hamda umumiy maqsad asosida birlashgan kishilar uyushmasi. Bilamizki, guruh yoki jamoani shakllanishi uchun, avvalo ma’lum maqsad yoki yo’nalish bo’lishi kerak.

Kichik guruhlar hajmi uni tashkil etuvchi shaxslar soni xususida shunday fikrga kelindiki, kichik guruh “diada” ikki kishidan tortib, to maktab sharoitida 30-40 kishi deb belgilandi. Ammo samarali o’zaro ta’sir nazarda tutilganda 7-2 kishi ko’zda tutiladi va yangi oila ham kichik guruh hisoblanadi. Ularni bohqarish esa shu guruh yoki jamoadagi tayinlangan guruh sardori yoki boshqaruvchining ishidir. Bu boshqaruvchilar guruh a’zolari tomonidan tayinlangan bo’lishi yo bo’lmasa shu guruhni tashkil qilgan asosiy inson bo’lishi mumkin.

Nonkonformizm – bu shunday kishilar guruhiki, ular hammaga ham, ayniqsa ko’p ikkilanuvhilarga ergashmaydilar. Ularga nisbatan lider termini qo’llaniladi. Lider –bu guruh faoliyati uchun mas’ul shaxs hisoblanadi. Kichik guruhlarda liderlik ya’ni boshqaruvchilik qilish bu juda ham jiddiy bo’lgan masalalardan biri. Chunki u shu guruhni o’zining ortidan ergashtira olishi va o’z gapini o’tkaza olishi kerak. Shu o’rinda savol tug’iladiki, guruh lideri qattiqqo’l bo’lishi kerakmi? Albatta o’z o’rnida ha, ammo har doim ham qattiq bo’lish va ularni ustidan hukmronlik o’rnatib qo’pol muomala qilish bu also to’g’ri emas. Aksincha bu narsani faqat ba’zi hollarda qo’llash kerak. Agar bu holat doimiy takrorlansa, bu guruh a’zolarini psixologiyasiga salbiy ta’sir qilishi va guruh tarqab ketishi mumkin. Bundan tashqari har qanday guruhni rivojlanib, qolgan guruhlarga nisbatan faol bo’lishida ham liderni ahamiyati katta. Chunki guruhga tayinlangan rahbar misol uchun, maktab misolida oladigan bo’lsak sinf rahbaridan ko’ra, sinf sardori ko’proq guruh bilan birga bo’ladi va guruhga qo’yilgan har qanday topshriq va uni mas’uliyat bilan bajarishda ham uni ahamiyati katta. Negaki, u agar guruh bilan yaxshi chiqisha olsa, guruh a’zolari uni aytganlari qo’llab quvvatlaydi va o’z vaqtida mas’uliyat bilan bajarishadi. Shu bilan birga, “nega unda guruhga rahbar tayinlanadi?” deyish mumkin. Rahbar ham guruh uchun eng asosiy mas’ul shaxs va uning guruh sardoridan farqi, u tashkilot yoki muassasa rahbariyati tomonidan tayinlangan bo’ladi va guruhning barcha a’zolari uchun shu qatorda, guruh lideri uchun ham javobgardir. Guruh sardori esa shu guruh a’zolari tomonidan tayinlanadi va uni rahbar o’ziga yordamchi qilib saylaydi. Kichik guruhlarga hos eng muhim masalalardan biri - bu guruh uchun boshqaruvchining tayinlanishi muhimmi? Albatta, bu jiddiy masala bo’lib uni inkor etib bo’lmaydi. Chunki har bir guruhni birlashtirib turuvchi bu albatta guruh boshqaruvchisidir. Ya’niki, boshqaruvchi guruh zanjirini birlashtirib turuvchi asos hisoblanadi. Uni bo’lmasligi esa guruhdagi holatni buzilishiga sabab bo’ladi. Buni yana maktab misolida oladigan bo’lsak sinfda sinf rahbarining bo’lmasligi ko’p narsaga ta’sir o’tkazadi. Avvalo, maktabdagi davomat tushib ketadi, ya’ni birov maktabga kel demaydi,

keyin hech kim o‘quvchilarni odob-ahloqi ishlari bilan shug‘ullanmaydi, ularni o‘qishi, bo‘sh vaqtlari haqida qayg‘urmaydi, hamma o‘z boshimchalik bilan ish qiladi va natijada o‘qish hamma uchun ahamiyatsiz bo‘lib qoladi. Yo bo‘lmasa kichik guruh hisoblanadigan oilalarimizni olaylik. Ularda boshqaruvchilarning ya’ni bobo buvi yo otalarimizning o‘rni va ahamiyati qanday? Bizning milliy o‘zbek oilalarida oila boshining aytgani aytgan degani degan va shu sabali ham har bir oilada tartib intizom kuchli. Chunki ular qolgan oila a’zolariga qaraganda ancha bilimli, tajribali va yoshlari ham katta. Ularni oilani birlashtirib turuvchi ustun desa ham bo‘ladi. Oilani har tomonlama ta’minlashadi va bu boradagi hamma masalalarga yechim topishadi. Oiladagi farzandlar tarbiyasi ham ularga bog‘liq. Kim nima qilyapti?, nima bilan mashg‘ul? hamma hammasi ularning nazoratidan o‘tadi. Bu esa shu oila a’zolari uchun albatta manfaatlidir.

Ammo hoh oila bo‘lsin, hoh maktab yo biror guruh unda munosib boshqaruv usulini olib borish juda muhim. sinfda tarbiyasi og‘ir o‘quvchilarga sal qattiqqo‘llik bilan, qaysar va dangasa o‘quvchilarni ham tilini topib shug‘illanish zarur. Agar hammaga bir hil e’tiborsiz holatda munosabat bildirilsa, o‘sha qaysar o‘sha qaysarligicha, dangasa dangasaligicha qolaveradi. Bu holatda bola psixik holatini bilmay ta’sir o‘tkazish ham juda qiyin va xato usul hisoblanadi. Ba’zilar uchun boshqaruvning qattiqqo‘llik bilan olib borish shakli qulay. Lekin bu holatda guruh boshqaruvchisi tez va ko‘p asabilashadi va bu narsa uni sog‘lig‘iga ham ta’sir qiladi.

Ayrimlar uchun esa hamma narsaga ham e’tibor beravermaslik yaxshi, ammo bu ham borib- boribko‘p narsaga mas’uliyatsiz munosabatda bo‘lishga olib kelishi mumkin. Natijada, guruhda bir nechta tartibsizliklar kuzatiladi. Guruh boshqaruvida shuni yodda saqlash zarurki, har doim boshqaruvchi bilan guruh a’zolari o‘rtasida hurmat, tartib yuzasidan chegara bo‘lishi kerak, agar bu chegara buzilsa, guruhda boshqaruvchining o‘rni yo‘qolishi mumkin.

Demak, guruh uchun boshqaruvchining bo‘lishi va uni guruh boshqaruvida munosib boshqaruv shaklini qo‘llashi muhim hisoblanadi. Chunki uning boshqaruvi natijasida guruh yo mustahkamlashib rivojlanadi, yoki aksincha.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI:**

1. Do‘stmuhammedova Sh.A, Tillashayxova X.A, Baykunusova G.Yu “Yosh davrilari va pedagogik psixologiya” – Darslik Toshkent. Nizomiy nomidagi TDPU, 2021y.
2. Ivanov I., Zufarova M. “Umumiy psixologiya”. O‘z.FMJ., 2008.
3. Davletshin M.G., Mavlonov M.M, To‘ychiyeva S.M. “Yosh va pedagogik psixologiya” T.TDPU, 2009.
4. Сирожиддинова, Ф. Х. (2022, August). РАХБАР БОШҚАРУВИДА МУЛОҚОТ МАДАНИЯТИ ВА ТАЪСИР КЎРСАТИШ ОМИЛЛАРИ: Сирожиддинова Фируза Хосилбековна, АндМИ “Гуманитар фанлар” докторанти. In *Научно-практическая конференция*.
5. Khosilbekovna, S. F. (2024). Ethnopsychological Predictors of the Process of Acculturation in Migrant Students. *International Journal of Formal Education*, 3(2), 199-203.